

SOVET ITTIFOQI DAVRIDA DINIY BOSHQARMAGA ASOS
SOLINISHI

Ikromova Mohinur Xidayatullo qizi

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom institute 4 – kurs talabasi

Ulug' vatan urushi (1941-1945) davrida dinga munosabat biroz yumshadi, bu paytda 1943-yilda Toshkentda O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasi tashkil qilindi. Uning ta'sis etilganligi haqida O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari vakillarining qurultoyida e'lon qilindi⁵.

Oktyabr inqilobidan so'ng sovet hokimiyatining O'rta Osiyoda o'rnatilishi keyingi o'n yillik davrda ko'plab masjid va barcha madrasalarning yopilishiga olib keldi. Natijada, 1929-yilga kelib O'zbekistonda diniy ta'lim tizimi batamom to'xtatildi. Oradan qariyb 15 yil o'tib, Ikkinchi jahon urushi davrida sovet tuzumining diniy siyosatida keskin o'zgarish kiritildi, bundan tashqari Ikkinchi jahon urushining eng og'ir paytida sobiq ittifoq aholisining Islom diniga bo'lgan munosabati ijobiy tomonga o'zgarib boshladi, 1943-yil, ikkinchi jahon urushi davom etayotgan bir paytda O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasi ta'sis etish harakati faollashdi. 1943- yil 12 iyunida ulamolar: Abdurazzoq Eshon Muhammad Alimov, Akramxon Tozixonov va Mulla Sodiq Islomov Eshon Boboxon boshchiligida O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari Diniy markazini tuzish to'g'risida SSSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi nomiga maktub jo'natishadi. SSSR Oliy Soveti Prezidiumi 1943 yil 31 iyulda 55-sonli qarori bilan hukumat tomonidan dindorlarga vijdon erkinligi berilishi va ularga diniy tashkilotlar tuzishga ijozat bo'lganligi haqida qaror qabul qildi.⁶

Qarordan ko'chirma:

“Markaziy Osiyo va Qozog'istonning bir guruh musulmon din peshvolarining iltimosi qondirilsin va Toshkentda O'rta Osiyo va Qozog'iston Musulmonlar diniy boshqarmasi tashkil etishiga ruxsat berilsin. Shu maqsadda Toshkentda O'zbekiston, Tojikiston, Turkmaniston, Qozog'iston va Qirg'iziston SSR musulmon din peshvolari va dindorlarining qurultoyini chaqirishga ruxsat berilsin”.⁷

Alhamdulillah bu misli ko'rilmagan katta yangilikdir. Bunday ish uchun barcha amaliy choralarni ko'rish maqsadida mintaqa musulmonlarining tashkiliy komissiyasi tuziladi. Komissiya tarkibiga O'zbekistondan Shayx

⁵ Amirsaidxon Usmonxo'jayev. “Dinimiz fidoyilari”. – Toshkent: Tafakkur, 2021.- B. 89.

⁶ N. Yo'ldoshxo'jayev, I. Qayumova. “O'zbekiston ulamolari”. – Toshkent: Movarounnahr, 2015.- B. 84.

⁷ SSSR XKSning 1945-yil 10-oktyabrdagi 4808-r sonli qarori



Eshon Boboxon boshlichigida, Qozog‘istondan Shayx Abdug‘affor rahbarligida, Tojikistondan Shayx Solih Bobokalon rahbarligida, Qirg‘izistondan Shayx Olimxon To‘ra Shokir rahbarligida, Turkmanistondan Shayx Anna Eshon rahbarligida, bir qancha ko‘zga ko‘ringan diniy arboblari kirdilar. Bu ishda ishtirok etish uchun sobiq ittifoqning Yevropa qismi va Sibiriya musulmonlari diniy boshqarmasi raisi Shayx Abdurahmon Rosuli va boshqa obro‘li ulamolar taklif etildi. Say-harakatlar natijasida 1943-yilning 20-oktyabr oyida O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlarining birinchi qurultoyi bo‘lib o‘tdi. Bu qurultoyda mintaqaning 5 respublikasidan 160 dan ortiq vakil qatnashdi. Qurultoyda Toshkent shahrida “O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy nazorati” nomi bilan yangi diniy markaz tashkil etilganligi haqida qaror qabul qilindi. Unda 11 kishidan iborat oliy hayati 5 kishidan iborat taftish komissiyasi tarkibi tasdiqlandi. Bu diniy nazoratga rais etib hamma bir ovozdan shayx Eshon Boboxon ibn Abdulmajidxonni sayladilar. Diniy nazorat faoliyatida muqaddas Qur‘oni karim va Muhammad Payg‘ambarimizning (s.a.v.) sunnatlari boshqaruv asosi qilib olindi. Diniy nazorat Nizomida boshqaruvning O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari oliy organi sifatida xuquq va majburiyatlari tasdiqlandi, markaz va joylardagi bo‘linmalarning vazifalari belgilab qo‘yildi⁸. Shuningdek, nizomda quyidagi vazifalar ham ko‘rsatildi:

– O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmanistonda joylashgan rasmiy diniy birlashmalar orqali diniy ishlar va marosimlarni boshqarib borish;

– Dindorlar orasida Islom asoslarini tushuntirish ishlarini yo‘lga qo‘yish;

– Diniy marosimlarga doir ayrim murakkab, ixtilofli masalalarni imom-xatiblar orkali hal etish, dindorlarga bunday masalalarga tegishli ko‘rsatmalarni tushuntirish;

– Dindorlarni to‘g‘rilik, halollik, mehnatsevarlik va qonunlarga hurmat ruhida tarbiyalash;

– Din xizmatchilari va dindorlar orasida zararli urf-odatlariga qarshi kurashish;

– Yuqorida sanalgan masalalarga doir fatvolar chiqarish;

– Diniy adabiyotlar nashr etish;

– Chet ellardagi musulmon tashkilotlari bilan aloqa o‘rnatish, xorijlik musulmon-birodarlarni beshta respublika musulmonlarining diniy va dunyoviy hayoti bilan tanishtirib borish.

⁸ A. Salmonov. “O‘zbekistonda Sovet hokimiyatining diniy siyosati”. – Toshkent: Tafakkur, 2015.- B. 93.



Oʻrta Osiyo va Qozogʻiston musulmonlari diniy boshqarmasi oʻsha kezlari oʻz faoliyatini Shayx Eshon Boboxon ibn Abdulmajidxon hovlisida ish boshlagan. 1956-yildan XV-XVI asrlarda qurilgan imoratlardan tarkib topgan tarixiy meʼmoriy yodgorlik – “Baroqxon” madrasasi binosi taʼmirlanib, Oʻrta Osiyo va Qozogʻiston musulmonlari diniy boshqarmasi qarorgohiga aylantirildi va oʻz faoliyatini yurita boshladi. Oʻrta Osiyo Respublikalari va Qozogʻiston diniy nazorati (avvalda shunday atalgan, keyin diniy boshqarma deyildi) “Baroqxon” madrasasida faoliyat yuritgani sababli Sovet Ittifoqiga tashrif buyurgan rasmiy delegasiyalar, ayniqsa, musulmon mamlakatlardan kelgan davlat va jamoat arboblari Hastimomda ham boʻlishardi. Masalan, Shamsuddinon Boboxonov 1988-yil davomida diniy idorada muftiy sifatida 300 dan ortiq chet ellik delegasiyalarni va ayrim jamoat va diniy arboblarni qabul qilganlar.⁹

Oʻrta Osiyo va Qozogʻiston musulmonlari diniy boshqarmasining kutubxonasi “Baroqxon” madrasasi roʻparasidagi “Tilla Shayx” jomeʼ masjidi hovlisida bunyod etilgan “Moʻyi Muborak” (XVI asr) madrasasida joylashgan edi. U 1943-yilda diniy idora asoschisi, marhum muftiy Eshon Boboxon ibn Abdulmajidxon (1860-1957 y.) tomonidan tashkil etilgan. Kutubxona ochilgach, “Moʻyi Muborak” madrasasi qayta taʼmirlangan (XX asr), yangi xonalar qoʻshilgan. Unga dastlab idora raisi, muftiy, shayx Eshon Boboxon ibn Abdulmajidxon shaxsiy kutubxonasidan mingdan ortiq qoʻlyozma taqdim etgan. Kutubxona mudiri etib navoiyshunos, bedilshunos olim Nodirxon domla Alauddinov (1899-1975) tayinlandilar. U kishi dastlabki kitoblarni tartiblash, sohalarga ajratish va roʻyxatga olish ishlarini amalga oshirdilar. Nodirxon domla 1943-yildan 1970-yilgacha kutubxonani aholidan sotib olingan va hadya qilingan qoʻlyozma va toshbosma yodgorliklar bilan boyitdilar. Xorijiy davlatlardan keltirilgan kitob va davriy jurnallar kutubxonaning alohida katta majmuini tashkil etadi.¹⁰

Bundan tashqari kutubxonada Qurʼoni karimning har xil hajmdagi qoʻlyozma va bosma nusxalari, ilmi tafsirga oid kitoblar, hadis, fiqh (Islom qonunshunosligi), arab grammatikasi, mantik, tarix, tib, sheʼriy toʻplamlar, jugrofiya, falsafa, iloxiyot, riyoziyot, falakiyot va mazkur fanlar buyicha yozilgan asarlarning sharhlari bilan tanishish mumkin boʻlib, asosan oʻtgan ming yil mobaynida mamlakatimizda va chetda bu asarlarning koʻpchiligi arab, fors va turkiy tillarda va ellarda yashab ijod etgan mualliflar tomonidan yozilgan. Qurʼonning baʼzi qadimiy qoʻlyozma nusxalari, Imom Buxoriyning “Al-

⁹ Amirsaidxon Usmonxoʻjayev. “Dinimiz fidoyilari”. – Toshkent: Tafakkur, 2021.- B. 98.

¹⁰ N. Yoʻldoshxoʻjayev, I. Qayumova. “Oʻzbekiston ulamolari”. – Toshkent: Movarounnahr, 2015.- B. 104.



Jome as-Sahih” nomli hadislar to‘plami, Imom Muslim, Imom Nasoiy, Imom Dorimiy, Ibn Sino, Forobiy, Beruniy, Roziy, Xorazmiy va boshka dunyoga mashhur olimlarning asarlaridan ko‘plari qo‘lyozma va bosma shaklda asrlar o‘sha bizning davrimizgacha yetib kelgan. Ayniqsa, hijriy xisob bilan bundan o‘n to‘rt asr ilgari xalifa Hazrati Usmon ibn Affon (Alloh ul kishidan rozi bo‘lsin) boshchiliklarida jamlanib, ilk bor kitob shaklida bitilgan to‘rtta Qur‘on nusxasidan birining ham bu kutubxonada mavjudligi ziyoratchilarning diqqatlarini o‘ziga jalb etib kelmokda. Bu “Mus’hafi Usmon” ning qanday qilib bizning diyorumizga kelib kolganligi va u qanaqa tarixga ega ekanligi haqida ilgari ko‘p ma’lumotlar berilgan. Bu xususida Diniy boshqarma ulamolari tomonidan maxsus bir risola ham nashr etilgan. “Usmon mus’hafining tarixi” nomli bu risolada O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari Diniy boshqarmasining sobiq noibi raislari marhum Ismoil Mahdum Sottiyev tomonlaridan mazkur muqaddas kitobning qanday qilib bizning diyorumizga kelib qolganligi tarixi yetarli dalillar asosida bayon qilingan. Kutubxonadagi kitoblar turli yillarda asosan mamlakatimizdagi bosmaxonalarda hamda Misr, Livan, Saudiya Arabistoni, Liviya, Hindiston, Pokiston, Marokash, Suriya va boshqab davlatlardagi bosmaxonalarda chop etilgan. Bu bilim xazinasida nodir qo‘lyozma nusxalari ham ko‘p. 1989-yil o‘tkazilgan ro‘yxat natijasida Diniy boshqarma kutubxonasida 3000 dan ortiq qo‘lyozma kitoblar borligi aniqlagan . Diniy idora ularni tasniflash uchun O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi sharqshunoslik instituti xodimlari H.Hikmatullayev va A.Qaziberdiyevni jalb etgan, biroq turli sabablarga ko‘ra bu ish chala qolgan.¹¹

O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy nazorati asoschisi, beshta respublikaning birinchi muftiysi sifatida ko‘p millatli musulmon xalqlar xotirasida muxrlanib kolgan Shayx Eshon Boboxon ibn Abdulmajidxon 1957- yil 5 iyun kuni vafot etdilar. Janoza namozini o‘g‘li Shayx Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon o‘qiganlar. O‘zbekiston hukumatining qarori bilan Qaffol Shoshiy qabrining yonboshiga dafn kilingan . Din yo‘lida qilingan say-harakatlar bir kun kelib o‘z mevasini berishga umid qilgan Boboxonovlar sulolasidan Shayx Ziyovuddinxon otasi-muftiy Eshon Boboxon ibn Abdulmajidxon vafotidan so‘ng 1957- yilda O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy nazorati raisi va muftiy etib saylandilar. Shayx Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon rahbarligi ostida islom dini ravnaqi yo‘lida amalga oshirilgan xayrli ishlar juda ko‘pdir. Ulardan ba’zilarini sanab o‘tish lozimdir. Sobiq Ittifoqdan, jumladan, O‘zbekistondan ham musulmonlarning

¹¹ N. Yo‘ldoshxo‘jayev, I. Qayumova. “O‘zbekiston ulamolari”. – Toshkent: Movarounnahr, 2015.- B. 107.



muborak haj ibodatini ado etish uchun borishining tashkil etilishidir. Hajga boruvchilar soni juda cheklangan bo'lishiga qaramay, bu ulug' ibodat uchun yo'l ochilganining o'ziyoq katta voqea bo'ldi. Yurtimiz musulmonlarining chet eldagi dindoshlari bilan aloqalar o'rnatishlari, namoz vaqtlari belgilangan diniy taqvimning qaytadan nashr etila boshlashi ham Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxonning rahbarligi davrida yo'lga qo'yildi. Uning har bir xorij safarida yirik ulamolar, ruhoniylar, din va davlat arboblari bilan yaqin munosabatlar o'rnatildi. U hayotining oxirgi kunigacha Yaman Arab Respublikasi bosh muftiysi Ahmad Zabara, Livan bosh muftiysi Hasan Xolid, Suriya bosh muftiysi Ahmad Kuftaru, Tunis Prezidenti qoshidagi Islom ishlari bo'yicha boshqarma direktori Shayx Mustafo Kamol at-Tarziy, Bolgariya muftiysi Muhammad Topchiyev, Fransiya musulmonlari rahbari Abu Bakr Xamza, Robita al-olam al-islomiy (Islom olami ligasi), Butunjahon Islom Kongressi, Pokiston, Turkiya, Marokash, Liviya, Mavritaniya, Misr, Iroq va boshqa mamlakatlarning ulamolari bilan do'stona aloqalarni uzmasdi. Shayx Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon boshchiligida Imom Termiziyning "Ash-Shamoyil al-Muhammadiyah" kitobining o'zbek tiliga tarjimai amalga oshirildi.¹²

Bundan tashqari Ziyovuddinxon Eshon 1971-yilda, imom-xatiblar malakasini oshirish bo'yicha o'quv kurslari bazasida Imom Buxoriy nomidagi Toshkent Islom institutini tashkil qiladilar va bevosita o'zlari unga rahbarlik qiladilar. Ushbu o'quv dargohi SSSRda yagona islom oliy o'quv yurti hisoblangan. 1991-yilda mazkur o'quv maskaniga universitet maqomi berilgan.

Muftiy Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon islom ravnaqi yo'lidagi xizmatlari uchun ikki marta I darajali "Iordaniya yulduzi" ordeni, "Iordaniya yulduzi" ko'krak nishoni, I darajali "Livan qarag'ayi", "Livan Yulduzi" ordenlari, Marokashning oliy darajali "Buyuk mutafakkir" Ordeni, sobiq Ittifoqning "Hurmat belgisi", "Xalqlar do'stligi" Ordenlari bilan taqdirlangan. 1982-yili Moskvada o'tkazilgan barcha din vakillarining mintaqa-Lararo konferensiyasi muftiy Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon Qatnashgan oxirgi anjuman bo'ldi. Butun umri davomida insonlarni birdamlik va tinchlikka chorlagan muftiy Shayx Ziyovuddinxon ibn Eshon Boboxon 1982-yil 23-dekabrda Toshkentda olamdan o'tgan. Janozasini Abdulaziz kori Mahmudov o'qigan. Hazrati Kaffol Shoshiy Maqbarasiga, otasi Shayx Eshon Boboxon ibn Abdulmajidxonning yoniga dafn etilganlar.¹³ Ziyovuddin Eshon Boboxon vafotlaridan so'ng 1982-yildan 1989-yilga qadar O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari diniy boshqarmasida Boboxonovlar sulolasi uchunchi vakili

¹² A. Salmonov. "O'zbekistonda Sovet hokimiyatining diniy siyosati". – Toshkent: Tafakkur, 2015.- B. 121.

¹³ Amirsaidxon Usmonxo'jayev. "Dinimiz fidoyilari". – Toshkent: Tafakkur, 2021.- B. 136.



Shayx Shamsuddin Eshon Boboxon raislik faoliyatini amalga oshirdilar. U kishi ham o‘z davrlarida dinga ulkan xizmatlar qildilar. 1989-yili bo‘lib o‘tgan navbatdan tashqari qurultoyda Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf diniy boshqarma raisi, muftiy etib saylandilar. 1990-yilda Qozog‘iston qoziyati diniy boshqarma tarkibidan chiqib ketdi va Qozog‘iston musulmonlari boshqarmasi tashkil topdi. 1991-yilda Sovet Ittifoqi tugashi bilan, O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlari diniy boshqarmasi O‘zbekiston musulmonlari boshqarmasiga aylantirildi. Turkmaniston, Tojikiston, Qirg‘izistonda ham diniy idoralari tashkil topdi. Ushbu muassasa butun mintaqadagi diniy vaziyat ustidan markazlashgan nazoratni tashkil qilish maqsadida tuzilgan edi; shunga ko‘ra Idora nomidan chiqarilayotgan har qanday qaror yoki hujjat davlat tekshiruvidan o‘tar edi. Biroq islomning biron bir «oliy institut» (boshqaruv organi) bilan mos kelmaydigan aqidaviy tizimi diniy idorani ma‘lum darajadai slom uchun begona organga aylantirdi. Islomning aqidaviy masalalarni sharhlash va xal qilish bilan diniy fanlarning yaxshi bilimdonlari (mujtahidlar) mustaqil ravishda shug‘ullana oladigan xususiyati doimo shunday vaziyatni yuzaga keltirganki, O‘rta Osiyo musulmonlari diniy boshqarmasi kabi soxta organlarning diniy qarorlari majbo‘riy harakter kasb eta olmagan va olmasdi ham.¹⁴

Sovet davrida diniy boshqarmalarning davlatdan alohida faoliyat olib borishi haqida rasman e‘lon qilingan bo‘lishiga qaramay, amalda ular davlat muassasasi bo‘lgan va dindorlar ham shunday deb bilganlar. Shu munosabat bilan shuni ham qayd etish o‘rinliki, O‘OMDI Stalin davrida tuzilgan va o‘sha davrdagi har qanday, shu jumladan diniy muassasa avtoritar tuzilishi voqyelikni takrorlaydigan tizim edi, bunday tizim uning rahbariga amalda chegaralanmagan hokimiyat beradi, bunday rahbar bir o‘zi xuddi Sovet hukumatining ilk paytlaridayoq joriy qilingani kabibyurokratik davlat tizimining avtokratlashtirilgan yuqori organi boshlig‘ioldida shaxsan javobgar bo‘ladi. Yuqorida qayd etilgan barcha xususiyatlar O‘OMDIning ikki tomonlama maqomini aniqlab beradi. Asosiysi, u chiqargan ko‘pchilik qaror va fatvolar dindorlar tomonidan oddiy ma‘muriy hujjat va diniy ahamiyati bo‘lmagan davlat buyruqlari kabi qabul qilingan. Avval zikr etilgan birinchi qurultoyda «Mintaqa (O‘rta Osiyo) besh ittifoqchi respublikalarining muftiysi» etib bir ovozdan Eshonxon Boboxon, uning o‘rinbosari etib Murodxo‘ja Solihiy (Solihov), mas‘ul kotib etib esa – Z.Boboxonov saylandilar. Quyidagi tizimlarning tashkil etilgani e‘lon qilindi. O‘n bir kishidan iborat boshqaruv (Hay‘at), besh kishidan iborat taftish hay‘ati.

¹⁴ Amirsaidxon Usmonxo‘jayev. “Dinimiz fidoyilari”. – Toshkent: Tafakkur, 2021.- B. 224.



Respublikalarda qoziyatlar tuzildi. Ularning raislari (qozilar) etib yuqorida qayd etilgan delegatsiyalar boshliqlari (O‘zbekistonda Z.Boboxonov) tayinlandilar. Bir paytning o‘zida xizmatchilar shtatlari va idora ichki bo‘limlari (fatvolar bo‘limi, masjidlar bo‘limi va b.) aniqlandi. Keyinroq idora qoshida Miri arab madrasasi (1945) va Oliy islom instituti (1971) ta‘sis etildi. Chiqarilayotgan fatvolar mavjud qonunlar va SSSR Konstitutsiyasiga zid bo‘lmasligi uchun yuridik masalalar bo‘yicha maslahatchi shtati kiritildi. 1947-yilda Boshqarma qoshida «Sovet sharqi musulmonlari» jurnali ta‘sis etildi. U faqat 1968- yildan boshlab muntazam chop etila boshladi. Unda Idoraning fatvolari va qarorlari (qisqartirilgan holda), hukumatning diniy siyosatga [oid qarorlariga sharhlar](#), imomlar maqolalari, dindorlar savollariga javoblar va hokazolar berib borilgan.¹⁵ Byudjet musulmonlarning xayriyalari va masjidlardan yig‘ilgan xayr ehsonlardan iborat bo‘lgan. Daromadning eng katta qismini o‘sha paytda O‘OMDI ixtiyorida bo‘lgan katta ziyoratgohlar Bahovuddin Naqshband, Qusam ibn Abbos va boshqalardan yig‘ilgan sadaqalar tashkil etgan. Mazkur daromadni o‘ziga xos shar‘iylashtirish maqsadida hanafiylik nuqtai nazaridan asoslab, avliyo darajasiga yetgan shaxslarni ziyorat qilish to‘g‘risidagi fatvo chiqarildi. Biroq 1957-yil yozga kelib Vazirlar Kengashi huzuridagi Diniy ishlar qo‘mitasi ziyorat an‘analarining ommaviy tusga kirishini «din paydo bo‘lishining xavfli belgilari» va «dindolarning norasmiy to‘planishi» deb baholab, barcha ziyorat obyektlarini yopish haqida rasmiy qaror chiqarilishiga erishdi.

Idora doimo partiya va hukumat organlarining an‘anaviy marosimlarga (o‘sha davrning beo‘xshov iborasi bilan aytganda – «o‘tmish sarqitlari»ga) qarshi kurashish borasidagi barcha maxsus qarorlariga moslashishga majbur edi. Idoraga «Haj qilish va avliyolarga sig‘inishni, mavlud (*Mavlud an-nabiy*) va boshqa an‘anaviy marosimlarni bekor qilish» haqida qator fatvolar chiqarish topshirilgan edi. Shu tariqa, yuqorida aytib o‘tilgan [va boshqa marosimlarni](#), ayniqsa jamoa bo‘lib bajariladigan marosimlarni «noshar‘iy», «islomga zid» deb e‘lon qilish haqida masjid imom-xatiblarining bir qator fatvolari va ko‘rsatmalari paydo bo‘ldi. Fatvolar chiqarish yo‘li bilan quyidagi urf-odat va marosimlar noshar‘iy deb e‘lon qilindi. Janoza paytida yig‘lovchilarning marsiyaxonlik va undan so‘ng Qur‘on o‘qib o‘tkaziladigan xudoyilar, marxum vafotining 3,7,20 va 40-kunlarini va yilligini dasturxon yozib nishonlashlar, nikoh to‘ylarida qalin to‘lash, beshik to‘ylari, xatna to‘ylari shular jumlasidandir. Fatvolarda mahalliy «avliyolar» qabrlarini ziyorat qilish, xususan, ziyoratchilarning qabrlar oldida duo

¹⁵ Amirsaidxon Usmonxo‘jayev. «Dinimiz fidoyilari». – Toshkent: Tafakkur, 2021.- B. 231.



o‘qishlari, mozorlarga tug‘lar o‘rnatish va sham yoqish, «avliyo» ruhidan madad tilash, yig‘lash, kasallarni tuzatish uchun dam solish va boshqalar shariatga zid deb e‘lon qilindi. [Shuningdek](#), Ramazon vaqtida yoki qabrlar oldida Qur‘onning ba‘zi qismlarini yoki to‘lig‘icha o‘qish (xatmi Qur‘on) evaziga pul olish ham noshar‘iy deb e‘lon qilindi.

Bunday qarorlarni asoslash uchun diniy idora qoshida Z.Boboxonov tashabbusi va rahbarligida ulamolar kengashi tashkil etild. Z.Boboxonov va uning maslakdoshlari chiqarilayotgan qarorlarni diniy jihatdan asoslashda asosan Qur‘on va hadislariga, ba‘zan hanafiya mazhabi fatvo to‘plamlari: «al-Mabsud» (Muhammad ash-Shayboniy), «al-Hidoya»ning sharhlari, «Fatovo al-Baydoviya» va boshqalarga suyananlar. Shu bilan bir qatorda bir qancha diniy hukmlarni (masalan, ajralish (taloq), tahorat paytidagi ba‘zi amallar, «avliyolar» qabrlarini ziyorat etishning mumkin emasligi va boshqa masalalarni) asoslashda fatvolar mualliflari boshqa mazhablarning o‘rta asrlardagi va hozirgi mualliflari asarlari: Ahmad ibn Hanbal (780-855)ning «al-Musnad», Abu Bakr Jobir al-Jazoiriyning «Kitob Minhaj al-muslim» va boshqalar asarlariga tez-tez murojaat etganlar. Shuningdek, masjidlar imom-xatiblariga qaratilgan (ko‘p hollarda Z.Boboxonov tomonidan imzolangan) maktublar ham mana shunday ruhda tuzilgan bo‘lib, ulardan musulmon bayramlarini o‘tkazishda «shariatga xilof ish tutish» munosabati bilan qo‘shimcha fatvo va ko‘rsatmalar o‘rin olgan.

Yuqorida zikr etilgan barcha fatvolar va qarorlar (juz‘iy o‘zgartishlar bilan) qayta tuzilib barcha masjidlarga tarqatildi hamda 1983-1984 yillarda Idoraning oylik nashrida e‘lon qilindi va to 1989-yilgacha bosib borildi. Bu KPSS MQning «Musulmon ruhoniylarining reaksiya qismini mafkuraviy izolyasiyalash haqida»gi Qaroriga bevosita javob edi. Aynan mana shunday tizim, boshqa qator omillar bilan birgalikda, islomning har qanday siyosiy sharoit va milliy-madaniy muhitga ham moslasha olish xususiyatini belgilagan. Islomning o‘z-o‘zini boshqarish salohiyati ko‘pincha uning diniy-huquqiy xilma-xilligiga asos bo‘lgan munozaralarga bog‘liq. Bu xilma-xillik esa o‘z navbatida tabiiy muvozanat vositasi bo‘lib xizmat qilish bilan birga «ilk islomning paydo bo‘lishi» haqidagi doimiy fikrlar uyg‘onishiga sabab bo‘lgan.¹⁶

O‘OMDIning so‘nggi muftiysi Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf davrida (1989-1993) Idoraning boshqaruv uslubi o‘zgara boshladi. Diniy ishlar bo‘yicha Qo‘mita mas‘ul xodimlari Diniy idora ishlarini qat‘iy boshqara olmay qoldilar. Masalan, qabul qilingan fatvolar tasdiqlash uchun Qumitaga taqdim etilmas va ko‘pchilik hollarda fatvolar arab tilida tuzilar, o‘zbek va rus tillariga

¹⁶ Amirsaidxon Usmonxo‘jayev. «Dinimiz fidoyilari». – Toshkent: Tafakkur, 2021.- B. 237.



tarjima qilinmas edi. Diniy idora masjidlar va o‘quv muassasalari ochish masalasini mustaqil tarzda hal qila boshladi. Ularning soni Qayta qurish davrida keskin ortib ketdi. Masalan, 1991-[yilga kelib](#), O‘zbekistonda masjidlar soni 4 878 taga, madrasalar 10taga yetdi). Qator qadimgi masjid va ziyoratgohlar Diniy idora ixtiyoriga berildi. Mozorlarni ziyorat qilish yuzasidan qat’iy hanafiy mazhabi ruhida tegishli fatvo va ko‘rsatmalar tuzildi. Shu paytning o‘zidayoq, Idoraning gazetasi «*Islom nur*» chiqa boshladi, asosan dolzarb masalalarni o‘z ichiga olgan diniy adabiyotlarni chop qiladigan turli maxsus nashrlar paydo bo‘ldi. Davlat tarafidan islomga bo‘lgan munosabat keskin o‘zgardi va asta-sekin ateistik siyosatdan voz kechildi.¹⁷

80-yillar oxiri 90-yillar boshlari O‘OMDI tarixida anchagina murakkab davr bo‘ldi. Sobiq Ittifoq tarqab ketmasidan avvaloq, respublikalardagi qoziliklar o‘z ishlarini mustaqil ravishda olib bora boshlagan edilar. 1991-yil oxiriga kelib, O‘OMDIning bo‘linishi aniq faktga aylangan edi. Inqiroz siyosiy omillar va musulmonlar («vahhobiylar» deb nomlangan guruh va an’anaviy yo‘l tarafdorlari) o‘rtasida avj olgan bo‘linishdan kuch oldi.

Sovet hokimiyati o‘rnatilib, O‘rta Osiyo va Qozog‘iston musulmonlar diniy boshqarmasi tashkil etilgunga qadar, o‘n yillar davomida masjid va madrasalar, maqbara va ziyoratgohlar, mozorlar, xonaqoh va muqaddas qadamjolar qarovsiz qolib ketgan edi. Ko‘pgina muqaddas qadamjolar vayronaga, ba’zi masjid va madrasa binolari otxonalarga aylantirilgan, hatto, ba’zilari vino-arog, pivo ishlab chiqarish korxonasiga aylantirilgan edi.

O‘zbekiston ruhoniylarining asosiy qismi 1930-yillarda qamoq lagerlariga jo‘natildi. Masjid va madrasalarning deyarli hammasi o‘tmishda garchi diniy marosimlarni o‘tkazish o‘choqlari bo‘libgina qolmasdan, xalqning buyuk merosini saqlab, boyitib kelgan madaniyat, ilm-ma’rifat markazlari ham bo‘lganiga qaramay berkitib qo‘yilgan. Eng achinarlisi, bu maskanlar omborxonalariga aylantirilib, diniy qadriyatlar oyoq osti qilingan.

Ikkinchi jahon urushining eng og‘ir paytida sobiq ittifoq aholisining Islom diniga bo‘lgan munosabati ijobiy tomonga o‘zgara boshladi. Mahalliy aholining iltimosi bilan musulmonlarni birlashtiruvchi tashkilot tuzish maqsadida Eshon Boboxon boshchiligida bir guruh faollar O‘zbekiston SSR Oliy Prezidiumi raisi Yo‘ldosh Oxunboboyevdan ruxsat so‘rashadi. Yo‘ldosh Oxunboboyev bu haqda Moskva bilan muzokaralar olib boradi va ruxsat olishga erishadi.¹⁸

Natijada 1943 yilda Moskvada Eshon Boboxon Iosif Stalin bilan uchrashadi. Stalin unga musulmon ulamolari qurultoyini chaqirish, ularga

¹⁷ N. Yo‘ldoshxo‘jayev, I. Qayumova. “O‘zbekiston ulamolari”. – Toshkent: Movarounnahr, 2015.- B. 179.

¹⁸ N. Yo‘ldoshxo‘jayev, I. Qayumova. “O‘zbekiston ulamolari”. – Toshkent: Movarounnahr, 2015.- B. 198.



urushda g'alabaga erishish uchun amaliy yordam berish yo'llarini qidirishni taklif etadi.¹⁹

SSSR Oliy Soveti Prezidiumining 1943-yil 31-iyul 55-sonli qaroriga binoan Toshkent shahrida O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlarining Diniy boshqarmasi tashkil etiladi. O'sha davrda xalq orasida "Qori", "Maxdum" sifatida e'tirof etilgan ulamolar Diniy boshqarmaning faoliyatiga sidqidildan yordam berishgan.²⁰ Ular jumlasiga andijonlik Mubin qori, No'mon qori, Habibulloh qori, Ibrohim maxdum, Mirza Mahmud qori, namanganlik Ismoil maxdum, toshkentlik Murodxo'ja Solihiy domla, Safo qori, Nofi' qori, Nodirxon mahdum, Fozil Xo'ja qozi, Munirxon maxdum domla, marg'ilonlik Sulaymon qori pochcha, Mukarramxon To'ra, Muhammad Amin domla, qirg'izistonlik Olimxon to'ra, Shafolat hoji domla, tojikistonlik Abdusattor qozi domla, Solih Bobokalon domla, turkmanistonlik Kina eshon domla, qozog'istonlik Abdug'affor domla va Sokin hazrat, oqqo'rg'onlik Nodirxon qori, Andijonlik Shahobiddin qori, Toshkentlik Shoikrom qori va Minhajiddin qorilarni, Chimkentlik Shokir Hiyoliddin hazrat va boshqa ko'plab olim va ulamolarni kiritish mumkin. Keyinchalik bu zotlar Diniy boshqarmaning muhim lavozimlarida faol xizmat qildilar va Diniy boshqarmaning shakllanishida ulkan hissa qo'shdilar.

Muftiy Eshon Boboxonga Diniy Idora boshqaruvini tashkil etish va uni yo'lga qo'yishda mazkur zotlardan tashqari o'zlarining o'g'illari Ziyovuddinxon qori, Kamoliddinxon qori, Badriddinxon va Nosirxonlar yaqindan yordam berishdi. Ular orasida, ayniqsa, Ziyovuddinxon qori Eshon Boboning yaqin yelkadoshlari va safdoshlari bo'ldilar.

1943-yil 18-20-oktabr kunlari Toshkentda I qurultoy bo'ladi. 160 kishidan iborat qurultoyda O'rta Osiyo va Qozog'iston musulmonlari Diniy boshqarmasini tashkil etish va Eshon Boboxonni muftiy etib saylash to'g'risida qaror qabul qilinadi. Bu yangi tashkilotning Ustavi ham qurultoyda qabul qilingan va tasdiqlangan.²¹

Qurultoyda O'rta Osiyo respublikalari bo'yicha delegatsiya rahbarlari tarkibi quyidagicha edi: Abdulg'affor Shamsutdinov (Qozog'iston), Solih Bobokalonov (Tojikiston), Olimxon-to'ra Shokirov (Qirg'iziston), Shayx Anna-eshon (Turkmaniston). Qurultoy yig'ilishida SSSRning Yevropa qismidagi musulmonlar vakili, Sibirdan Abdurahmon Rasuliy, Moskva Imom-xatibi Xalil-

¹⁹ A. Salmonov. "O'zbekistonda Sovet hokimiyatining diniy siyosati". – Toshkent: Tafakkur, 2015.- B. 234.

²⁰ A. Salmonov. "O'zbekistonda Sovet hokimiyatining diniy siyosati". – Toshkent: Tafakkur, 2015.- B. 243.

²¹ Amirsaidxon Usmonxo'jayev. "Dinimiz fidoyilari". – Toshkent: Tafakkur, 2021.- B.116.



Rahmon, Qozon jome masjididan Qiyomiddin Al-Qodiriylar ham ishtirok etishgan.²²

Oʻrta Osiyo va Qozogʻiston musulmonlari diniy boshqarmasi muftiysi sifatida bir ovozdan Eshonxon Boboxon tayinlanadi va Murodxoʻja Solihiy (Solihov) uning muovini boʻladi. Ijroiya kotibi etib Eshon Boboxonning oʻgʻli Ziyovuddin Boboxon tayinlanadi.

Qurultoy SSSR xalq komissarlari Kengashi raisi va Oliy bosh qoʻmondon Stalinga sovet xalqini dushman bilan urushda qoʻllab-quvvatlagan holda murojaatini qabul qilgan.

Oʻrta Osiyo va Qozogʻiston musulmonlari Diniy boshqarmasi tashkil topgach, shahar va qishloqlarda diniy hayot jonlandi. Masjidlar ochila boshladi va diniy birlashmalar tashkil etildi.

Yangi diniy markazni moliyaviy taʼminlash maqsadida sobiq besh respublikaning yirik shahar va viloyatlarida bitta-bittadan masjid ochilishiga ruxsat berilgan. Bir necha yillar din-u diyonatdan mahrum etilgan xalq xaroba holga kelib qolgan masjidlarni taʼmirlashga kirishgan. Chunki masjidlarning ochilishiga ruxsat etilishining oʻziyoq ular uchun tarixiy voqea edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Mansurov A. Qurʼoni karim maʼnolari tarjima va tafsiri. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2005.
2. Boboxonov Sh. Shayx Zayniddin ibn eshon Boboxon. –Toshkent: Davlat ilmiy nashriyoti, 2001.
3. Ziyovuddin ibn eshon Boboxon. Sovetlar yurtida islom va musulmonlar. – Moskva: Taraqqiyot, 1980.
4. Yoʻldoshxoʻjayev N, Qayumova I. Oʻzbekiston ulamolari. – Toshkent: Movarounnahr, 2015.
5. Usmonxoʻjayev A. Dinimiz fidoyilari. – Toshkent : Tafakkur, 2021.
6. Shayx Abdulaaziz Mansur. Oʻzbekiston musulmonlari idorasi.- Toshkent: Movarounnahr, 2014.
7. Oʻzbekistonda islom dini taʼlimi, tarixi, rivojlanishi va jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati. – Toshkent: Renessans press, 2023.
8. Z. Islamov. Toshkent islom madaniyati poytaxti. – Toshkent: Toshkent islom universiteti, 2007.
9. R. A. Silantiyev. Rossiyadagi eng yangi islom tarixi. – Moskva: Eksmo, 2007.

²² N. Yoʻldoshxoʻjayev, I. Qayumova. “Oʻzbekiston ulamolari”. – Toshkent: Movarounnahr, 2015.- B. 204.

